

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONINING ILMIY TANQIDIY MATNI VA TURLI DAVRLARDA NASHR QILINGAN VARIANTLAR ORASIDAGI TAFOVUTLAR

Zebiniso Qurbanboyeva

O'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, asl nusxa, qo'lyozma, kirill alifbosi, tanqidiy matn, manba, bayt, transliteratsiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilk dostoni “Hayrat ul-abror”ning Porso Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tanqidiy matni va turli davrlarda nashr qilingan variantlar orasidagi tafovutlar tadqiq etilgan. Buning uchun 16 va 20-maqolatlar tanlab olingan. Ushbu maqolada quyidagi masalalar yoritilgan:

nashrlarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish;
 nashrda tanqidiy matnlarning o'rnnini yoritib berish;
 nashrlardagi mayjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish usullariga oid takliflar kiritish.

Ushbu maqolada quyidagi maqsad va vazifalar ko'zda tutilgan:

dostonning bir necha manbalar asosida qiyosiy tahlilini amalga oshirish va shu orqali uning ilmiy jihatdan ahamiyatini belgilash;

asl matnga eng yaqin matnni shakllantirishga ko'maklashish;

Bu ilmiy ishni amalga oshirishda tarixiy-qiyosiy metod, shuningdek, kontekstual va ilmiy tavsiflash, tasniflash, statistik metodlar qo'llanildi.

Ushbu maqolada tadqiqtolar natijasida aniqlangan mazmunga ta'sir ko'rsatgan o'rinalar haqida so'z borib, quyidagi kategoriyalar orqali tartiblandi:

- 1) so'zlarning qo'shib yoki ajratib yozilishi;
- 2) arab alifbosidan kirill alifbosiga noto'g'ri transliteratsiya qilinishi;
- 3) punktuatsion belgilar bilan bog'liq xatolar.

Nashr va imiy-tanqidiy matn o'rtasidagi tafovutlarni ko'rib chiqish asosida quyidagicha xulosalarga kelindi:

– Porso Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tanqidiy matn arab grafikasiga tayanadi. Nashrlar esa kirill yozuvida ado etilgan. Bir yozuvning ikkinchi yozuvga transliteratsiya qilinishi bilan aloqador bo'lgan kamchiliklar, ayniqsa, arab grafikasida aks

ettirilmaydigan unlilarni berishda qiyinchiliklar, har xilliklar ko‘zga tashlanadi.

– Qo‘shma so‘zlar imlosidagi ayirmalar umumiy salmog‘iga ko‘ra katta guruhni tashkil etadi. Bu, birinchidan, qo‘shma so‘zlar bilan aloqador bo‘lgan umumiy qoidalar, nazariy qarashlardagi ayrim murakkabliklar bilan aloqador bo‘lsa, ikkinchidan, mumtoz adabiyotdagi qo‘shma so‘zlar bilan bog‘liq muammolarning yetarlicha ishlanmagani bilan izohlanadi.

THE SCIENTIFIC CRITICAL TEXT OF THE EPIC "HAYRAT UL-ABROR" AND THE DIFFERENCES BETWEEN THE VARIANTS PUBLISHED IN DIFFERENT PERIODS

Zebiniso Kurbanboyeva

Teacher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: classic literature, the original copy, manuscript, Cyrillic alphabet, critical text, source, byte, transliteration.

Abstract: In this article, the differences between the scientific critical text of Alisher Navoi’s first poem Hayrat ul Abror by Porso Shamsiyev and the volumes published in different periods and in different volumes are studied. 16 and 20 articles were selected for this purpose. This article covers the following issues:

Performing a comparative analysis of publications;

Clarifying the place of critical texts in the publication;

Making proposals on existing shortcomings in publications and ways to eliminate them.

This article provides the following goals and objectives:

To carry out a comparative analysis of the epic based on several sources and thereby increase its scientific importance;

To help to form a text that is closest to the original text;

To eliminate defects in future editions.

This scientific work was carried out in certain directions. Historical-comparative method, as well as contextual and scientific description, classification, statistical methods were used in the research.

In this article, we will talk about the topics that have influenced the content identified as a result of the research, and they will be sorted by the following categories: 1) addition or separation of words; 2) incorrect transliteration from the Arabic alphabet to the Cyrillic alphabet; 3) punctuation errors.

We considered the differences between the publication and the scientific critical text, dividing it into several categories listed above. The following conclusions were drawn from this:

– A scientific critical text by Porso Shamsiyev relies on Arabic graphics. Publications are given in Cyrillic script. The shortcomings associated with the transliteration of one script into another, especially the difficulties and differences in providing

vowels that are not reflected in Arabic graphics, are noticeable.

– Differences in the spelling of compound words form a large group compared to the total weight. Firstly, it is related to some complexities in the general rules and theoretical views related to compound words, and secondly, it is explained by the insufficient treatment of problems related to compound words in classical literature.

РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ НАУЧНО-КРИТИЧЕСКИМ ТЕКСТОМ ДАСТАНА "ХАЙРАТ УЛ-АБРОР" И ВАРИАНТАМИ, ИЗДАННЫМИ В РАЗНЫЕ ЭПОХИ

Зебинисо Курбанбоеву

Учитель,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

классическая литература, оригинальная копия, рукопись, Кириллица, критический текст, источник, байт, транслитерация.

Аннотация: В данной статье исследуются различия научно-критического текста первой поэмы Алишера Навои «Хайрат ул аброр» Порсо Шамсиева от томов, изданных в разных томах в разные периоды. Для этого были отобраны 16 и 20 статей. В этой статье рассматриваются следующие вопросы:

- Провести сравнительный анализ публикаций;
- Уточнение места критических текстов в публикации;
- Внесение предложений по имеющимся в публикациях недостаткам и путям их устранения.

В данной статье представлены следующие цели и задачи:

- ❖ Провести сравнительный анализ изданий на основе нескольких источников и тем самым повысить его научную значимость;
- ❖ Помогут формированию текста, наиболее близкий к исходному тексту;

В исследовании использованы историко-сравнительный, а также контекстуальное и научное описание, классификация, статистические методы.

В статье речь идет о темах, которые повлияли на контент, выявленный в результате исследования, и они будут классифицированы по следующим категориям:

- 1) сложение или разделение слов;
- 2) неправильная транслитерация с арабского алфавита на кириллицу;
- 3) пунктуационные ошибки.

Мы рассмотрели различия публикации от научно-критического текста, разделив его на несколько категорий, перечисленных выше. Из этого были сделаны следующие выводы:

– Научно-критический текст Порсо Шамсиева опирается на арабскую графику. Публикации представляются кириллицей. Заметны недостатки,

связанные с транслитерацией одной письменности в другую, особенно трудности и различия в выделении гласных, которые не отражены в арабской графике.

– Различия в написании сложных слов образуют большую группу по сравнению с общим весом. Во-первых, это связано с некоторыми сложностями в общих правилах и теоретических воззрениях, касающихся сложных слов, во-вторых, объясняется недостаточной проработкой проблем, связанных со сложными словами, в классической литературе.

KIRISH

Ma'lumki, mumtoz adabiyotimiz namunalari, jumladan, Navoiy asarlarining qo'lyozmalari ancha keng tarqalgan. Tabiiyki, ularni turli kotiblar ko'chirishgan. Shunga ko'ra, qo'lyozmalarda ayrim tafovutlar ham yuzaga kelgan. Yig'ma yoki tanqidiy matnlar uchun ehtiyojlar shu tarzda shakllangan. Matnlardagi jiddiy xatolar, chalkashliklarni bartaraf etish atroflicha chuqr bilim, o'tkir ziyraklik, katta mas'uliyat hamda kasbga nisbatan kuchli muhabbatni taqazo qilar edi. Porsoxon Shamsiyevda ana shu xususiyat va fazilatlar mujassamlashgani ishda katta muvaffaqiyatlar qozonishiga zamin yaratdi¹.

Tom ma'noda, Porsoxon domla bu ishni qoyilmaqom va juda chiroqli tarzda amalga oshirgan. Shu sababli ham Alisher Navoiy asarlarining tabdil qilingan variantini, xususan, "Xamsa" dostonini "Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik", "Mukammal asarlar. 20 tomlik", "Asarlar to'plami. 10 jildlik" to'plamlarni nashrga tayyorlashda bevosita olimning ishlariga tayanilgan.

"Mukammal asarlar to'plami (20 tomlik)" ning 7-tom kirish qismida shunday deyilgan: "Alisher Navoiyning yigirma jildlik "Mukammal asarlar to'plami"ni yaratish muammosi Adabiyot instituti ilmiy xodimlari oldiga "Xamsa" dostonlarining ilmiy tekshirilgan va izohlangan nashrini tuzish vazifasini qo'ydi. Bunda ular o'z ustozlari – Porso Shamsiyev tuzgan matnlarni asos qilib oldilar va tekstlarga ma'lum darajada tuzatishlar hamda aniqliklar kiritishga muvaffaq bo'ldilar"².

Arab alifbosidagi matnlarni kirill yoki lotin yozuviga o'girishdan maqsad nima? Albatta, ushbu noyob asarlarni arab grafikasidan bexabar ommaga, ko'pchilikka birday tushunarli alifboda taqdim etishdir. Ammo shuni ta'kidlab o'tish joizki, yuqorida tilga olingan Navoiy asarlarining turli davrlarda, turli olimlar hamda farqli hajmlarda amalga oshirilgan nashrlar matni P.Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgan tanqidiy matndan o'zaro tafovutlarga ega. Ushbu maqolada quyidagi masalalarni yoritishga harakat qilamiz:

- ❖ nashrlarning qiyosiy tahlilini amalga oshirish.
- ❖ nashrda tanqidiy matnlarning o'rnnini yoritib berish.

nashrlardagi mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish usullari bo'yicha takliflar kiritish.

TADQIQOTNING USULLARI

Ushbu ilmiy ishni amalga oshirishdan birdan-bir maqsad bu asarning asl matnini tiklashga qisman bo'lsa ham ko'maklashish. Asarning asl matnini tiklash esa quyidagilarni nazarda tutadi:

- ❖ yuqorida ta'kidlaganimizdek, uni nashrga tayyorlash va o'quvchiga iloji boricha mukammal shaklda yetkazib berish.

¹ Нуридинов Ш. Комил Хоразмий девони манбалари генеалогияси ва матн танқиди муаммоси: филология фанлари (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Карши; 2022. – Б.14.

² Алишер Навоий. Мукаммал асрлар тўплами. "Хайратул-аббор" 7 том. – Тошкент: Фан, 1991. – Б.6.

- ❖ “Hayrat ul-abror” dostoni maqolatlarining matnshunoslik jihatidan o‘rnini belgilash.
- ❖ Dostonning bir necha manbalar asosida qiyosiy tahlilini amalga oshirish va shu orqali tafovutlarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash.
- ❖ Shoir yoritmoqchi bo‘lgan ma’nodagi asl matnga eng yaqin matnni shakllantirishga ko‘maklashish.

Biz keyingi davrda amalga oshirilgan ikkala nashr (“Mukammal asarlar to‘plami. 20 томлик”, “To‘la asarlar to‘plami. 10 жиллик”) materiallarini ilmiy-taqnidiy matn bilan qiyoslab chiqdik. Qiyos uchun asarning beshta (16 – 20) maqolati alohida ajratib olindi.

Qiyoslarni ikki yo‘nalishda amalga oshirish belgilab olindi:

- 1) nashr me’yorlarini o‘zaro qiyoslash;
- 2) nashr matnnini tanqidiy matn materiallari bilan qiyoslash.

Har ikki yo‘nalishdagi ishlarning yaxshi samara bermanini alohida ta’kidlash joiz.

Usullar. O‘zbek matnshunosligida qo‘lyozma nusxalardagi farqlarni turli yo‘nalishda tasniflash tajribalari mavjud³. Porso Shamsiyev ham qo‘lyozma nusxalardagi tafovutlarni: asosiy farqlar va muhim orfografik farqlarga bo‘lib o‘rganish mumkinligini aytib o‘tgan edi⁴. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, biz ham ishni muayyan yo‘nalishlarda tekshirishni ma’qul ko‘rdik. Bunda tarixiy-qiyosiy metod, shuningdek, tadqiqotda kontekstual va ilmiy tavsiflash, tasniflash, statistik metodlar qo‘llanildi.

Dastlab, **mazmunga ta’sir ko‘rsatgan** o‘rinlarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Bunda quyidagi guruhlar tartiblandi:

- 1) so‘zlarning chegaralarini aniqlash;
- 2) arab alifbosidan kirill alifbosiga transliteratsiya qilinishiga bog‘liq o‘rinlar;
- 3) punktuatsion belgilar bilan bog‘liq xatolar.

NATIJALAR

So‘zlarning qo‘shib yoki ajratib yozilishi bayt mazmuniga ta’sir qilgan o‘rinlar nashrlarda nisbatan ko‘roq ko‘zga tashlanadi: 10 jiddlikda ulug‘roqsen, 20 jiddlikda ulug‘roq sen, Porso Shamsiyev ilmiy-taqnidiy matniga qarasak اولوغراف سين ajratib yozilgan. Keling, ushbu so‘z ishtirok etgan baytni tahlil qilib ko‘ramiz:

Senki ichim o‘rtadi mehring tafi,
Chunki ulug‘roq sen erur muxtafi⁵.

Ya’ni:

Sening mehring harorati ichimni o‘rtadi, sening yoshing kattaroq, shuning uchun bu mehr(im) yashirinroqdir.

Yana bir misol sifatida quyidagi baytni ham tahlil qilish joiz ko‘rinadi:

Kimniki inson desang, inson emas,
Shaklda bir, fe’lda yakson emas⁶.

Ushbu baytdagi yakson يكسان (189 va 198) birikmasi qolgan nashrlardan farqli ravishda yuqorida aytilgan ikkala nashrlarda qo‘shib yozilgan. Ajratib yozilganda yak so‘zi forschadan bir raqamini, son so‘zi esa raqamni bildirib, qo‘shib yozilganda teng, bir xil, o‘xshash degan

³ Намозова З. Навоий лирикаси матншунослиги тадқики тадрижи (Хамид Сулаймон илмий фаолияти асосида). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2020. – Б.118.

⁴ Шодмонов F. Порсо Шамсиев илмий лабораторияси: тадқиқ усуллари тамойиллари, матншунослик тараққиётидаги ўрни. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2021. – Б.64.

⁵ Алишер Навоий. Муқаммал асрлар тўплами. “Ҳайратул-аббор”. 7 том. Тошкент: Фан, 1991. – Б.291.

⁶ O’sha manba. – B.325.

ma'nolarni bildiradi. Demak, bayt mazmuniga ushbu o'rinda yakson tarzida qo'shib yozilgani to'g'ri kelar ekan, ya'ni "Agar shaklda ham (tashqi ko'rinishi), fe'l-atvorda ham bir xil bo'lmasa, uni inson dema, u inson emas ..."7

Bunga yana bir misol qilib quyidagi baytni ko'rish mumkin:

Kim manga ko'k yer bila yakson bo'lub,
Charx ochuq gulshani zindon bo'lub⁷.

Kimsani (کیمسانی) 172 so'zi 10 tomlikda ajratib, ya'ni kim sani tarzida, 20 tomlikda esa qo'shib, ya'ni tanqidiy matnda berilganidek yozilgan. Agar kimsa, ya'ni shaxs, odam ko'rinishida bo'lsa ot so'z turkumi bo'lib, kim seni tarzida bo'lsa, kim so'roq hamda sen kishilik olmoshlari bo'lib keladi. Buni bayt mazmuniga qanchalik ta'sir qilganini aniqlab olish o'rinni:

Kimsani chun doirai dahr band,

Oxir etar tufrog' aro shahr band⁸.

Ya'ni: "Taqdir kimsani (odamni) oxir oqibatda tufrog' bilan baravar qilib bog'laydi (tekislab tashlaydi)". Agar kim sani olmoshlarini qo'yib o'qisak, "Taqdir, kim sani oxir oqibatda tufrog' bilan baravar qiladi, unga bog'laydi" mazmuni kelib chiqar ekan. Bunda taqdir so'zi undalma bo'lib, unga qarata aytilayotgan so'roq gap bo'ladi. Ammo yuqoridagi baytdan oldin kelayotgan she'rning boshqa misralarini o'qisak birinchi, ya'ni kimsa ko'rinishi to'g'ri berilganligining guvohi bo'lamiz.

Yana shunday so'zlardan biri – bu kun (بۇ كۈن) 173), 10 va 20 tomliklarda ajratib, 15 tomlikda esa qo'shib bukun tarzida berilgan. Ajratib yozilganda bu ko'rsatish olmoshi, kun esa ot vazifasida, qo'shilib yozilganida bugun, ya'ni payt ravishi bo'lib kelgan. Bu yerda 15 tomlikka ham murojaat qilganimiz sababi, arab grafikasi qoidasiga binoan vov , harfidan keying kelayotgan harf ajratib yoziladi. Bir qaraganda ilmiy tanqidiy matnni o'qigan o'quvchi kontekstdan kelib chiqib qay ma'nodaligini anglashi mumkin, ammo transliteratsiyadan o'qiyotgan o'quvchi ko'zda tutilayotgan mazmundan chalg'ishi mumkin, qay biri qanchalik to'g'ri ekanligini bayt mazmunidan bilib olamiz:

Tongla bila chun tuna kundur adam,

Balki sanga qoldi bu kun, bal bu dam⁹.

Hamul so'zi tanqidiy matnda faqat qo'shib yozilgan, lekin nashrlarda turli o'rinnlarda turlicha, ham qo'shilgan, ham ajratib ham ul tarzida berilgan. Qo'shib yozilganda ko'rsatish olmoshini, ajartib yozilganda ham yuklama va ul ko'rsatish olmoshini bildiradi. Ikkita o'rinda hamul tarzida همۇل (178 va 185) 10 tomlikda, ham ul tarzida esa 20 tomlikda berilgan, har ikkala tomliklarda hamulkim همۇلکىم (180) ajratib ham ulkim ko'rinishida berilgan. Baytlarni tahlil qilib ko'rsak:

G'ayri hamul oshiqi ozodavash,

Kim bo'lubon ishq balosig'a xush¹⁰.

Adlaning ko'nglig'a qilg'ach guzar,

Kishvariga qildi hamul dam asar¹¹.

7 Алишер Навоий. асарлар тўплами. "Хайратул-аббор" . Ўн жилдлик. 6-жилд. –Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашиёт матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.300.

8 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. "Хайратул-аббор" . 7 том. Тошкент: Фан, 1991. – Б.293.

9 Алишер Навоий. асарлар тўплами. "Хайратул-аббор". Ўн жилдлик. 6-жилд. –Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашиёт матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.258.

10 O'sha manba. – B.266.

11 O'sha manba. – B.278.

Ya’ni: “Adolat uning ko‘ngliga o‘tgach, o‘sha dam mamlakatiga ta’sir etdi, ya’ni adolat alomatlari sezildi”. Demak, bu baytdagi mazmundan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, ko‘rsatish olmoshi shakli, ya’ni qo‘shilib yozilgani to‘g‘ri.

Kimki ko‘ngul vasfida burhon dedi,
Oni badan mulkiga sulton dedi.

Muni ham ulkim o‘zin ogoh der,
Borchha jahon kishvarig‘a shoh der¹².

Ya’ni: “Kimki ko‘ngil tasvirida guvoh dedi, uni badan mulkiga sulton dedi. Buni ham (yana) o‘zini ogoh deydi, barcha jahon mamlakatiga shoh deydi”. Bu o‘rinda ajratib yozilgan variant, ya’ni ham yuklama va ulkim olmosh bo‘lib kelgan tarzi to‘g‘ri.

Arab alifbosida kirill alifbosiga noto‘g‘ri transliteratsiya qilinishi baytning ma’no-mazmuniga daxl qilib, tamoman boshqa ma’no anglashilishiga sabab bo‘lib qolgan o‘rinlardan biri sifatida quyidagi baytni keltirish joiz bo‘ladi:

Pilga yo‘q pashshacha qadru baho,
Pesa ipakcha ko‘ziga ajdaho¹³.

Ushbu misrada kelgan pesa پیسہ (160) (olachipor)¹⁴ so‘zi 20 jildlikda paysa (pul, chaqa)¹⁵ shaklida kelgan:

Filning pashshachalik qadru bahosi yo‘q,
Ajdaho uning ko‘ziga olachipor ipakchadek.

Agar shu baytga paysa so‘zi qo‘yib tahlil qilib ko‘rilsa, ipak so‘ziga nisbatan uning qanday ekanligini bildiruvchi sifatlovchi so‘z bo‘lmay qolar edi. Yana bir jihat shundaki, Porso Shamsiyev o‘zi tomonidan tabdil qilinib yozilgan 15 tomlikda ham paysa shaklida berilgan. Bizningcha, ustoz bu misrada ipakni qiymatsiz, bir chaqalik arzimas mato sifatida ta’riflashni ma’qul topganlar.

Yana shunga o‘xhash holatlardan biri bu ilmiy tanqidiy matnda emas ايماس (190) so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, faqat 10 tomlikda shu ko‘rinishda, qolgan nashrlarda esa ko‘rinishida berilgan. Ammo esa so‘zi bayt mazmuniga to‘g‘ri kelmaydi:

Yaxshi emas afv siyosat chog‘i,
Lek kerak ishda farosat dog‘i¹⁶.

Quyidagi baytga ham nazar solsak, esam (193) so‘zi 10 tomlik nashrda yesam, 20 tomlikda esam tarzida berilgan:

Bilmas esam men tilak oyinini
Aylama zoyi aning ominini¹⁷.

Bu o‘rinda guvoh bo‘lganimizdek yesam so‘zi ma’no-mazmun jihatdan nomutanosib.

Kirill alifbosiga o‘girilishdagi xatolardan yana biri – el ايل (175) so‘zidir. Bu so‘z 10 tomlik nashrda yel tarzida berilgan. Baytga to‘xtaladigan bo‘lsak:

12 Алишер Навоий. асарлар тўплами. “Ҳайратул-аббор”. Ўн жилдлик. 6-жилд. –Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.269.

13 O‘sha manba. – В.237.

14 Шамсиев П. Навоий асарлари лугати. – Тошкент, 1972. – Б.505.

15 Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 4 томлик. (Э.И.Фозилов таҳрири остида) –Тошкент. Ўзбекистон ССР “Фан нашриёти”, II том. 1983. – Б.555.

16 Алишер Навоий. асарлар тўплами. “Ҳайратул-аббор”. Ўн жилдлик. 6-жилд. –Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.286.

17 Алишер Навоий. Мука ммал асарлар тўплами. “Ҳайратул-аббор”. 7 том. Тошкент: Фан, 1991. – Б.330.

Elni o‘zung jonibidin emin et,
O‘zni tarab maskaniga sokin et¹⁸.

Ya’ni, “Xalqni o‘zing tarafdan tinch et va o‘zingni tarab (xursandchilik, shodlik, aysh-u ishrat)¹⁹ maskanida sokin et”. Agar baytga yel so‘zini qo‘yib o‘qisak baytdan anglashinadigan ma’no butunluy o‘zgarib, muallif aytmoqch bo‘lgan ma’noga salbiy daxl qiladi.

Yana bir boshqa baytda ham shu holni ko‘ramiz:

El yuragin tig‘i shigof aylasa,
Xasm boshin gurzi xilof aylasa²⁰.

Ya’ni:

Elning yuragini tig‘i chok aylasa,
Dushman boshini xilof aylasa.

Bayt mazmuniga e’tibor qaratsak, “elning yuragi, ya’ni xalqning, yurtdoshlarining ko‘nglini...” mazmunida kelmoqda, agar yel so‘zini qo‘yib tahlil qilib ko‘rsak, ikkinchi misrada ko‘zda tutilayotgan ma’no bilan to‘g‘ri kelmay qolar edi.

Qiyosiy materiallar orasidan shunga o‘xhash yana boshqa bayt misolida:

Etti sababliqqa seni baxtiyor,
Qismat etarga sanga ne ixtiyor?²¹

Bu baytdagi etti (ابي) so‘zi X tomlik nashrda yetti tarzida berilgan. Bu yerdagi etti yordamchi fe’li “sabab” so‘ziga tegishli bo‘lib, ”Seni baxtiyor bo‘lishing uchun sabab etti” ma’nosida kelgan. Bu o‘ringa yetti so‘zi, demak, mazmun jihatdan to‘g‘ri kelmas ekan. Mazkur holatda uning son (7) ma’nosini ham, harakat (yetib bilmoq) ma’nosini ham baytning umumiyligi mazmun va ma’no doirasiga sig‘ishmaydi.

Yana shunday so‘zlardan biri – bu tiyra so‘zidir. Ushbu so‘z 20 va 10 jiddliklarda tira shaklida yozlgan, faqat 15 tomlik tabdildagina bayt ma’nosiga to‘g‘ri keluvchi shaklda, ya’ni tiyra ko‘rinishida kelgan. Bu so‘zlarining qay biri to‘g‘ri ekanligini aniqlab olish uchun ma’nolarini anglab, baytni tahlil qilib ko‘rgan ma’qul. Tiyra—(forscha) qorong‘u, qora; g‘amg‘ussali²² ma’nolarini, tira—(tiramoq) o‘zini yoki biror narsani tutib turish uchun tirkak, tayanch ma’nolarini anglatadigan harakat ma’nosini anglatadi.

Oning uchunkim, qachon o‘lsa nabard,
Aylasa aflok yuzin tiyra gard²³.

Ya’ni:

Uning uchunkim, qachon jang bo‘lsa,
Falaklar yuzin qora gard aylasa.

Bayt ma’nosini tahlil qilsak, bundan ko‘rinadiki, bu yerda tira so‘zi tamoman to‘g‘ri kelmaydi, baytdan mujmal ma’no anglashiladi.

Bunday so‘zlarga yana bir nechta misollar keltirsak bo‘ladi: “Falak g‘amxonasiidakim, maoli parokanda alam durur takalluf bila masrur bo‘lmoq va jahon vayronasidakim, moli ham ul raqam durur ko‘ngil uyin ma’mur tutmoq va har nafaskim hayot gulshanidin nasim durur,...”²⁴.

18 Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. “Ҳайратул-аббор”. 7 том. Тошкент: Фан, 1991. – Б.299.

19 Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик. (Э.И.Фозилов таҳрири остида) –Тошкент. Ўзбекистон ССР “Фан нашиёти”, III. 1984. – Б.184.

20 Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. “Ҳайратул-аббор”. 7 том. Тошкент: Фан, 1991. – Б.271.

21 O’sha manba. – B.321.

22 Шамсиев П. Навоий асарлари луғати . Тошкент: Фофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашиёти, 1972. – Б.608.

23 Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. Т.6.–Тошкент: “Тошкент” бадиий адабиёт нашиёти, 1965. – Б.184.

Ushbu jumladagi moli مالى (172) so‘zi tanqidiy matndagi kabi 10 tomlikda shu ko‘rinishda, “Mukammal asarlar to‘plami”da esa omoli tarzida berilgan. Agar bu yerga omoli, ya’ni istaklar, umidlar²⁵ ma’nolarini bildiruvchi so‘z qo‘ysak gap mazmuniga to‘g‘ri kelmay qoladi.

Boshqa bir baytga to‘xtalsak:

Dog‘ ko‘rub ko‘ksunga ista farog‘,

Qo‘yma malolat bila dog‘ uzra dog‘²⁶.

Bu yerdagi malolat(malollik, anduh, g‘am- g‘ussa)²⁷ so‘zi tanqidiy matnda malomat ملامت(172) (ta’na, dashnom)²⁸ ko‘rinishda kelgan.

Quyidagi baytda esa ikkita so‘z xumul خومل (172) va choh هچ (172) so‘zlari nashrlarda turlicha berilgan.

Ta’bni bandig‘a xumul aylama,

Aqlni chohida malul aylama²⁹.

Xumul (qorong‘ulik, zulmat; noaniqlik, noma'lumlik)³⁰ tarzida 20 tomlikda, 10 jildlikda esa xamul (xilvatgoh, tarki dunyo, yolg‘izlik)³¹ tarzida berilgan. Qay biri to‘g‘ri ekanligini bayt mazmunini tahlil qilish orqali bilib olsak: “Ko‘nglingni zulmat bandisi aylama (etma), aqlningi (uning) chohida ranjitma yoki g‘amgin aylama”. Demak, xumul ko‘rinishidagi transliteratsiya to‘g‘ri keladi.

Yana ushbudagi choh (zindon, chuqur; quduq)³² so‘zi 10 tomlikda shu ko‘rinishda, ya’ni to‘g‘ri berilgan, “Mukammal asarlar to‘plami” da esa chox tarzida, umuman ma’no anglatmaydigan ko‘rinishda berilgan.

Jirmuni oning ko‘rub ahli jahon,

Ko‘zga latofat muni aylab nihon³³.

Jirm جرم (173) (jism, mohiyat; og‘irlilik, vazn)³⁴ so‘zi 10 tomlikda shu ko‘rinishda, 20 tomlikda esa jurm (gunoh, ayb)³⁵ ko‘rinishida berilgan. Bayt mazmuniga keladigan bo‘lsak, “Ahli jahon uning jismini ko‘rib, buni ko‘zga go‘zallik (latofat) ayladi”. Agar jurm, ya’ni gunoh, ayb ma’nosini qo‘yib o‘qisak ikkinchi misradagi ma’noga zid tushuncha bo‘lib qoladi.

24 Алишер Навоий. асарлар тўплами. “Ҳайратул-аббор” . Ўн жилдлик. 6-жилд. –Тошкент:Faafur Fulomномидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.256.

25 Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 4 томлик. (Э.И.Фозилов таҳрири остида) –Тошкент. Ўзбекистон ССР “Фан нашриёти”, II том. 1983. – Б.521.

26 Алишер Навоий. асарлар тўплами. “Ҳайратул-аббор”. Ўн жилдлик. 6-жилд. –Тошкент: Faafur Fulomномидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.257.

27 Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 4 томлик. (Э.И.Фозилов таҳрири остида) –Тошкент. Ўзбекистон ССР “Фан нашриёти”, II том. 1983. – Б.219.

28 O‘sha manba.– Б.219.

29 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. “Ҳайратул-аббор”. 7 том. Тошкент: Фан, 1991. – Б.293.

30 Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 4 томлик. (Э.И.Фозилов таҳрири остида) –Тошкент. Ўзбекистон ССР “Фан нашриёти”, III том. 1984. – Б.430.

31 O‘sha manba.– Б.377.

32 Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 4 томлик. (Э.И.Фозилов таҳрири остида) –Тошкент. Ўзбекистон ССР “Фан нашриёти”, III том. 1984. – Б.480.

33 Алишер Навоий. асарлар тўплами. “Ҳайратул-аббор”. Ўн жилдлик. 6-жилд. –Тошкент: Faafur Fulomномидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.258.

34 Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 4 томлик. (Э.И.Фозилов таҳрири остида) –Тошкент. Ўзбекистон ССР “Фан нашриёти”, II том. 1983. – Б.579.

35 O‘sha manba.– Б.599.

Quyidagi baytdagi xush خوش (178)(yaxshi, ma'qul; chiroyli, yoqimli)36 so‘zi 20 tomlikda hush (es, sezgi, ong, aql)37 ko‘rinishida berilgan, 10 tomlik nashrda esa tanqidiy matndagi kabi xush tarzida berilgan:

G‘ayri hamul oshiqi ozodavash,
Kim bo‘lubon ishq balosig‘a xush³⁸.

“O‘sha o‘zga oshiqi ozodavash, kim ishq balosini ma’qul yoki yoqimli deb bilgan”. Ko‘rinadiki, agar bu yerga hush, ya’ni aql, ong so‘zini qo‘ysak, baytda ko‘zda tutilib aytilmoqchi bo‘lgan fikrga butunlay to‘g‘ri kelmaydi.

Shunday so‘zlar ham borki, noto‘g‘ri yozilishi sababli hech qanday ma’no mazmun kasb etmaydigan bo‘lib qolgan. Masalan, vasi’ وسیع (180) (keng, yoyiq, bepayon; katta, ulug‘)39so‘zi 10 va 20 jildlik nashrlarda vasi’ tarzida yozilgan.

Sohati to‘rtunchi falakdin vasi’,
Rutbasi yettinchi samodin rafsi⁴⁰.

Ma’lumki, arab alifbosidagi harflar nuqtalarining o‘rni muhim. Agar nuqta bitta kam yoki ko‘p yoki noto‘g‘ri joyga qo‘yilsa, umuman boshqa so‘zga aylanib qolishi mumkin. Buni nashrlar va ilmiy-tanqidiy matnlarni solishtirish jarayonida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Bor بار (161) so‘zini olaylik, bu so‘z 20 tomlikda yor tarzida berilgan:

Ko‘nglung aro himmat agar bor esa,
Zoting aro jur’at agar bor esa⁴¹.

Xazaf خزف (171) so‘zi (sopol)⁴² 20 tomlikda xazaf bo‘lib, lekin 10 tomlikda xaraf shaklida kelgan. Xaraf so‘zi haqida esa hech qaysi lug‘atlarda ma’lumot berilmagan, bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bu so‘z lug‘aviy ma’noga ega emas.

Tutki, bo‘lubmen xarafu notavon,
Ayla meni toat uchun navjavon.

Bulardan tashqari, yana bir o‘zig xos ma’noga ta’sir etuvchi xatoliklardan biri punktuatsion belgilari bilan bog‘liq. Masalan:

1. Dedi: “Hasan, aylamagil ijтиҳод,
- Ulki aning ishqida qildim jihod⁴³.
- Mukammal asarlar to‘plamida esa,
2. Dedi Hasan: aylamagil ijтиҳод,
- Ulki aning ishqida qildim jihod⁴⁴.

36 Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 4 томлик. (Э.И.Фозилов таҳрири остида) –Тошкент. Ўзбекистон ССР “Фан нашриёти”, III том. 1984. – Б.439.

37 Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 4 томлик. (Э.И.Фозилов таҳрири остида) –Тошкент. Ўзбекистон ССР “Фан нашриёти”, IV том. 1985. – Б.206.

38 Алишер Навоий. асарлар тўплами. “Ҳайратул-аббор”. Ўн жилдлик. 6-жилд. –Тошкент: Faфур Fулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.266.

39 Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 4 томлик. (Э.И.Фозилов таҳрири остида) –Тошкент. Ўзбекистон ССР “Фан нашриёти”, I том. 1984. – Б.360.

40 Алишер Навоий. асарлар тўплами. “Ҳайратул-аббор”. Ўн жилдлик. 6-жилд. –Тошкент: Faфур Fулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.269.

41 O‘sha manba.– Б.239.

42 Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли лугати. 4 томлик. (Э.И.Фозилов таҳрири остида) –Тошкент. Ўзбекистон ССР “Фан нашриёти”, III том. 1984. – Б.369.

43 Алишер Навоий. асарлар тўплами. “Ҳайратул-аббор”. Ўн жилдлик. 6-жилд. –Тошкент: Faфур Fулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2011. – Б.244.

44 Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. “Ҳайратул-аббор”. 7 том. Тошкент: Фан, 1991. – Б.278.

Birinchi baytda gap Hasanga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi baytda aksincha, Hasan boshqa bir shaxsga qarata gap gapirayotganini anglashimiz mumkin. Aslida ham dostonda 10 jidlikda berilgani kabi Abdulloh ibn Muborakning Hasan Rabe’ga murojaati bo‘lgan. Birgina tinish belgining noto‘g‘ri qo‘yilishi oqibatida gap egasi o‘zgargan.

Ilmiy tanqidiy matn	20 tomlik “Mukammal asarlar to‘plami”	10 tomlik “To‘la asarlar to‘plami”
(170) اولوغراق سين	ulug‘roq sen	ulug‘roqsen
(167) ايلاكى	Uylaki	o‘ylaki
(171) ايتى	itti	aytti
(160) پيسه	pesa	Paysa
(160) ايل	El	yel
تىرە	Tira	Tira
(161) بار	yor	bor
(171) حرف	xazaf	xaraf
(175) ايل	el	yel
(172) مالى	Omoli	Moli
172) ملامت	Malolat	Malolat
خمول	Xumul	Xamul
(173) جرم	Jurm	Jirm
(178) خوش	Hush	Xush
(172) كىمسى	Kimsani	kim sani
(178 va 185) همول	ham ul	hamul
ايتنى	etti	Yetti
(190) ايماس	Esa	emas
(193) ايسام	esam	yesam
(160) بىر	Bir	Yuz
(160) بىر	Har	Har
(161) بىل	Bir	Bil
(163) تاپقۇچا	Topg‘ucha	Torg‘ucha
(163) پىردلى	Pir dile	Purdile
(164) سماع	Simo‘	Samo‘
(167) اوت	O‘t	Ut
(167) انسان	Chiqqusi	Ansab
(168) اوى	Ev	Ev
(172) عمينك	A‘ming	A‘ming
(174) اولدى	Uldi	O‘ldi
(179) مشعلە	Shu‘lai	Mash’ala
(180) وسیع	Vasi‘	Vasi‘
(181) كوك	Gunbadidek	Ko‘k
(182) هر	Har	Bir
(185) قولوب	Ko‘lub	Kulub

(187) اوردى	Uzdi	Uzdi
(187) اوى	O'y	Uy
(189) ماده كيم	Moddakim	Maddakim
(190) تيکاچ	Yetgach	Yetgach
(190) اليدا	Olida	Ollida
(192) سمع وار	Shashvor	Shashvor
(192) يوروب	Yurub	Yurub
(193 va 199) يارب	Yorab	Yo Rab!
(194) اوزون	Uzuk	Uzun
(195) اليمه	Olima	Ollima
(197) دى	De	Ne
(197) پارسى	Yorasi	Yorasi
(197) پويه	Yo'ya	Po'ya
(197) يالپىك	Yalang	Yoling
(199) يوز	O'z	Yuz

XULOSA

Yuqorida bir necha guruhlarga ajratgan holda nashr va imiy tanqidiy matn o'rtasidagi tafovutlarni ko'rib chiqdik. Tafovutlar quyidagi xulosalarga olib keladi.

1. Porso Shamsiyev tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tanqidiy matn arab grafikasiga tayanadi. Nashrlar esa kirill yozuvida ado etilgan. Bir yozuvning ikkinchi yozuvga transliteratsiya qilinishi bilan aloqador bo'lgan murakkabliklarni mutaxassislar yaxshi bilishadi. Ayniqsa, arab grafikasida aks ettirilmaydigan unlilarni berishda qiyinchiliklar, har xilliklar ko'zga tashlanadi.

2. Qo'shma so'zlar imlosidagi ayirmalar umumiyligi salmog'iga ko'ra katta guruhnini tashkil etadi. Bu, birinchidan, qo'shma so'zlar bilan aloqador bo'lgan umumiyligi qoidalar, nazariy qarashlardagi ayrim murakkabliklar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, mumtoz adabiyotdagi qo'shma so'zlar bilan bog'liq muammolarning yetarlicha ishlanmagani bilan izohlanadi.

3. Hatto birgina harf, birgina tinish belgisi ham bayt mazmuniga jiddiy daxl qila olishi, o'quvchida shoir nazarda tutgan ma'nodan boshqa ma'no anglanishiga yo'l ochib berishi mumkin. Shu sababdan bu xatolarni aniqlab, boshqa takrorlanmasligining oldini olish lozim. Ushbu xatoliklarni sinchkovlik va e'tibor bilan o'rganib chiqib, kelgusida qilinajak ilmiy ishlar uchun to'g'ri matn asosini tuzish lozim.

4. Har bir unsur, har bir tovush asar mazmunida katta ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan arab alifbosidan xoh kirill alifbosiga, xoh lotin alifbosiga o'girmaylik hech narsani nazardan chetda qoldirmasligimiz lozim. Yuqorida guvohi bo'lganimizdek, bir tovushning noto'g'ri yozilishi yoki ajratib, yoki qo'shib yozilishi so'zni butunlay boshqa ma'noga burib yuborishi, bu esa bayt mazmuniga katta ta'sir qilishi mumkin ekan.

5. So'zlarda bir punktuatsion belgining noto'g'ri o'rinda qo'llanilishi ma'noga ta'sir qilgan. Bular, albatta, muhim, ayni damda dolzarblari ham bor.

Shu sababli, keljakda amalga oshiriladigan transliteratsiyali nashrlarda bunday muammolarni bartaraf etish joiz bo'ladi. Birdan-bir ko'zlangan maqsad, bu yosh avlodga Alisher Navoiy asarlari ma'no-mazmunini yanada yaxshiroq anglash uchun, mutafakkir yashagan davrni, muhitni va eng muhimi shoirning adabiy-estetik muddaosini, ana shu muddaolarni amalga

oshirish uchun belgilab olgan vazifalarini to‘g‘ri va to‘la tasavvur hamda to‘g‘ri talqin qilgan holda yetkazishdir. Buning uchun esa ishonchli va mukammal manba zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisher Navoiy. Hayrat-ul-abror. Ilmiy tanqidiy matn. (Tuzuvchi: Porso Shamsiyev), T.: O‘zSSR “Fan”. 1970. – 201 b.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. “Hayratul-abror” 7 tom. T.: “Fan”, 1991. – 345 b.
3. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. T.6. – T.: “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965. – 268 b.
4. Alisher Navoiy. Asarlar to‘plami. “Hayratul-abror” O‘n jildlik. 6-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2011. – 304 b.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati to‘rt tomlik. (E.I.Fozilov tahriri ostida) – T.: O‘zbekiston SSR “Fan nashriyoti”, I tom. 1983. – 656 b.
6. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati to‘rt tomlik. (E.I.Fozilov tahriri ostida) – T.: O‘zbekiston SSR “Fan nashriyoti”, II tom. 1983. – 646 b.
7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati to‘rt tomlik. (E.I.Fozilov tahriri ostida) – T.: O‘zbekiston SSR “Fan nashriyoti”, III tom. 1984. – 624 b.
8. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati to‘rt tomlik. (E.I.Fozilov tahriri ostida) – T.: O‘zbekiston SSR “Fan nashriyoti”, IV tom. 1985. – 636 b.
9. O‘zRFAShI asosiy fondidagi №5018 inventar raqamli qo‘lyozma bayoz.
10. Shamsiyev P. Navoiy asralari lug‘ati. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. – 784 b.
11. Shodmonov G‘. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Porso Shamsiyev ilmiy laboratoriyasi: tadqiq usullari, tamoyillari, matnshunoslik taraqqiyotidagi o‘rni. Toshkent, 2021. – 256 b.